SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




# SIRDARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

2023- YIL YANVAR-SENTABR

# SIRDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO‘RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- oktabr holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 1 089 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 362 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 33,2 %  Guliston shahrida joylashgan.

## 2023- yil 1-oktabr holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

| | |
|---|---|
| Guliston sh | 362 |
| Mirzaobod tumani | 120 |
| Sirdaryo tumani | 98 |
| Yangiyer sh | 88 |
| Guliston tumani | 79 |
| Boyovut tumani | 75 |
| Sayxunobod tumani | 70 |
| Xovos tumani | 65 |
| Oqoltin tumani | 57 |
| Sardoba tumani | 38 |
| Shirin sh | 37 |







Fuqarolik obyektlarini qurish




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Bino va inshootlar qurilishi

Shuningdek, Guliston shahrida 362 ta (viloyat bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 33,2 %), Mirzaobod tumanida – 120 ta (11,0 %) qurilish korxonalari mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan  kattaroq ko‘rsatkichga ega.

# Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi
# (yanvar-sentabr uchun)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 2 671,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil etdi.

**2019** — **1 394,3** mlrd. so'm

**2020** — **1 764,3** mlrd. so'm

**2021** — **2 032,9** mlrd. so'm

**2022** — **2 354,0** mlrd. so'm

**2023** — **2 671,4** mlrd. so'm




*Ma'lumot uchun:* qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari

### Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati, %da

| | | |
|---|---|---|
| Guliston sh. | 728,0 mlrd. so‘m | 98,1 % |
| Shirin sh. | 171,3 mlrd. so‘m | 101,5 % |
| Yangiyer sh. | 153,1 mlrd. so‘m | 101,2 % |
| Boyovut | 68,8 mlrd. so‘m | 101,2 % |
| Guliston | 103,1 mlrd. so‘m | 85,5 % |
| Mirzaobod | 658,0 mlrd. so‘m | 98,6 % |
| Oqoltin | 57,5 mlrd. so‘m | 100,7 % |
| Sardoba | 98,6 mlrd. so‘m | 100,3 % |
| Sayxunobod | 49,4 mlrd. so‘m | 100,4 % |
| Sirdaryo | 474,8 mlrd. so‘m | 103,2 % |
| Xovos | 108,8 mlrd. so‘m | 136,2 % |



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida xususan, Guliston shahri (728,0 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumanida (658,0 mlrd. so‘m) va Sirdaryo tumanida (474,8 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 59,6 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 99,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 37,7 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 2,7 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil etdi.




**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar kiritiladi.

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 78,5 % yoki 2 095,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 437,8 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 20,9 % ni tashkil etdi.

20,9 %

437,8
mlrd. so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1 563,1 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 74,6 % ni tashkil etdi.

74,6 %

1 563,1
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 95,0 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

4,5 %

95,0
mlrd. so‘m

## Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi

| 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|
| 66,7 % | 48,3 % | 65,2 % | 81,3 % | 78,5 % |
| 930,0 mlrd. so‘m | 852,2 mlrd. so‘m | 1 455,4 mlrd. so‘m | 1 914,9 mlrd. so‘m | 2 095,9 mlrd. so‘m |

# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Guliston shahri (582,7 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumani (531,5 mlrd. so‘m), Sirdaryo tumani (331,0 mlrd. so‘m) va Shirin shahrida (129,9 mlrd. so‘m) qayd etildi.



## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

**Jami bino va inshootlarni qurish – 1 591,9** ***mlrd. so'm***

**19,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari

***308,5***

mlrd. so'm

2022- yilning mos davriga nisbatan

***78,3 %***

**69,4 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar

***1 104,6***

mlrd. so'm

2022- yilning mos davriga nisbatan

***108,3 %***

**11,2 %**

Norasmiy sektor

***178,8***

mlrd. so'm

2022- yilning mos davriga nisbatan

***84,4 %***

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 19,4 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 5,2 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,8 % punktga ko'payib, 69,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 11,2 % ni tashkil etdi.

# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi

**Hududlarning hajmi,** ***mlrd. so‘mda***

*Ma’lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xovos tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 76,4 % ), Sardoba tumani (73,8 %) va Shirin shahri (69,1 %) da kuzatildi.






Xovos tumani
**76,4 %**



Sardoba tumani
**73,8** %



Shirin shahri
**69,1** %

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy koʻrsatkichlari

### *Korxonalar turlari boʻyicha*

### Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. soʻm*

**12,8 %**

Yirik qurilish tashkilotlari

***129,3***

mlrd. soʻm

2022- yilning mos davriga nisbatan

***71,8 %***

**87,2 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar

***879,0***

mlrd. soʻm

2022- yilning mos davriga nisbatan

***107,2 %***

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yoʻllari, koʻchalar, koʻpriklar va tunnellar, temir yoʻllar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sugʻorish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi ogʻir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish boʻyicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 12,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 87,2 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,4 % punktga koʻpaydi.

# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

**Hududlarning hajmi,** *mlrd. so‘mda*




*Ma’lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 51,0 % ), Mirzaobod tumani (39,0 %) va Oqoltin tumani (34,6 %)da kuzatildi.



**51,0 %**
Guliston shahri




**39,0 %**
Mirzaobod tumani




**34,6 %**
Oqoltin tumani

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy koʻrsatkichlari
### *Korxonalar turlari boʻyicha*

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. soʻm*




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, boʻyoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqogʻozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni oʻz ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelib 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga koʻpaydi va 2,7 % ni tashkil etdi.

# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**Hududlarning hajmi,** *mlrd. so‘mda*




*Ma’lumot uchun:*
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Boyovut tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 6,8 % ), Sayxunobod tumani (5,8 %) va Xovos tumanida ( 4,8 %) kuzatildi.



**6,8 %**
Boyovut tumani



**5,8 %**
Sayxunobod tumani



**4,8 %**
Xovos tumani

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so‘mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi




| Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
|---|---|---|
| 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda – **76,2** % | 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda – **108,3** % | 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda – **93,2** % |

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




**2022- y.** **2023- y.**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 437,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 76,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 5,2 % ga kamayib, 16,4 % ni tashkil etdi.

**Xo‘jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

**2019**: **43,6** *mlrd. so‘m* — **163,4 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

**2020**: **72,6** *mlrd. so‘m* — **145,2 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

**2021**: **487,7** *mlrd. so‘m* — **6,6 m.** oldingi yilning mos davriga nisbatan

**2022**: **508,1** *mlrd. so‘m* — **87,8 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

**2023**: **437,8** *mlrd. so‘m* — **76,2 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 15,6 |
| Shirin sh. | 124,1 |
| Yangiyer sh. | 1,2 |
| Boyovut | 2,2 |
| Guliston | 24,2 |
| Mirzaobod | 85,3 |
| Oqoltin | 0,5 |
| Sardoba | 1,0 |
| Sayxunobod | 1,3 |
| Sirdaryo | 140,9 |
| Xovos | 41,5 |

## Jamiga nisbatan ulushi




Shirin sh.




Xovos tumani




Sirdaryo tumani

*Ma’lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Shirin shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 72,5 % i), Xovos tumanida (38,1 % ) va Sirdaryo tumanida (29,7 %) qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

### Kichik korxona va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi

**2022- y.**




**2023- y.**

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 76,9 % i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,6 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil etgan holda 2 054,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos davriga nisbatan **161,3 %**

oldingi yilning mos davriga nisbatan **87,7 %**

oldingi yilning mos davriga nisbatan **108,3 %**

**2019** — **1 170,5** *mlrd. so‘m*

**2020** — **1 527,6** *mlrd. so‘m*

**2021** — **1 363,4** *mlrd. so‘m*

**2022** — **1 678,3** *mlrd. so‘m*

**2023** — **2 054,8** *mlrd. so‘m*

**113,9 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

**103,8 %** oldingi yilning mos davriga nisbatan

# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m




## Jamiga nisbatan ulushi



Guliston shahri



Mirzaobod tumani



Sirdaryo tumani

*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (688,1 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumanida (560,3 mlrd. so‘m) va Sirdaryo tumaniga (278,5 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

### Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 6,7 % ni yoki 178,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 93,2 % ni tashkil etdi. Shundan 88,1 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 84,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 6,8 mlrd. so‘mni va 90,7 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta’mirlash ishlari 83,9 mlrd. so‘mni va 105,2 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor







**55,4** mlrd. so‘m
Sirdaryo tumani



**24,3** mlrd. so‘m
Guliston shahri



**17,2** mlrd. so‘m
Xovos tumani

*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (55,4 mlrd. so‘m), Guliston shahrida (24,3 mlrd. so‘m) va Xovos tumanida (17,2 mlrd. so‘m ) qayd etildi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

### Yanvar-sentabr oylaridagi hajm, *mlrd. so‘mda*




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 88,6 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2 582,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,3 % va 96,7 % ni tashkil etdi.



***Ma’lumot uchun:*** nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Shirin shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,0 % ), Mirzaobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 97,8 % ) va Guliston shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 97,3 % ) qayd etildi.

## USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash,  gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o‘ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko‘rsatadi yoki ish jabhasini ta’minlaydi, ularni qabul qiladi va to‘lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog‘liq chuqur qidiruv burg‘ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi burg‘ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Sirdaryo viloyati Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**
**Tel. 67 236-70-00 (2020)**